# II. SANOAT

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 35 945,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 124,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,6 %)ni tashkil etdi.







B - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 25,6 % ga, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 29,1 % ga o‘sish kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 23,1 % ga va Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 5,5 % o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % *da*

mlrd. so‘m




*FHI, % da*




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 168,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*

**Ulushi,** *% da*




**FHI,** *% da*



## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-sentabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35 070,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % *da*







### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 163 284 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 168,7 % ga ko‘paygan), 16,1 ming tonna neft (111,2 %), yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi va 2 813,0 tonna Tozalanmagan paxta yog‘i (39,2 %), 49 537,0 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (80,3 %), 9 234,0 ming. litr 80 % dan etil spirti (101,7 %), 9,8 tonna Milliy non (yopgan non) (61,6 %) kamayish kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % *da*

### Yengil avtomobillar



### Yumshoq bug‘doy va spelta uni



### Aroq



### O‘simlik yog‘i (tozalangan)



### Uzum vinosi



### Paxtadan yigirilgan ip



### 80 % dan kam bo‘lmagan etil spirti



### Alyuminidan elektr izolyatsiyasiz o‘ralgan sim



### Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar,to‘rlar



### Neft



### Paxta chigiti



### Paxta tolasi



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** *dona* | 163 284,0 | 96 771,0 | 66 513 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | 43 154,6 | 61 314,6 | -18 160,0 |
| **Aroq,** *ming litr* | 420,9 | 472,0 | -51,1 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 96 839,7 | 103 395,2 | -6 555,5 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | 25 355,5 | 18 995,1 | 6 360,4 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t.* | 2 813,0 | 7 177,0 | -4 364,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 68,7 % ga ko‘paydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 69 816 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 161,2 %), 17 735 dona “Nexia T-250” (107,6 %), 64 074 dona “Lacetti-Gentra” (213,0 %), 11 119 dona “Spark” (161,2 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, dona)*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida)*



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 619,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 29,1 % ga o‘sish kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*
*(yanvar-sentabr oylarida)*







**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln. kvt/s* | 678,1 | 442,5 | 235,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 64,5 | 56,1 | 8,4 |
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so‘m. | 339,7 | 270,0 | 69,7 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 86,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 52,7 | 53,0 | -0,3 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd. so‘m* | 14,1 | 10,6 | 3,5 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** *tonna* | 0,5 | 1,7 | -1,2 |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26 991,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 159,2 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021- yil yanvar-sentabr oyida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 71,7 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 5,2 % ni, Paxtaobod tumani 1,7 % ni, Xo‘jaobod tumanida 5,2 % ni hamda Baliqchi tumani 1,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat 159,2 % ni tashkil etgan. Yuqori darajada o‘sish ko‘rsatkichi Asaka (177,4 %), Ulug‘nor (103,7 %), Paxtaobod (174,1 %), Qo‘rg‘ontepa (124,5 %), Baliqchi (119,2 %) hamda Izboskan tumanlarida (116,0 %) qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 078,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,3 % ni tashkil etdi.

## Andijon viloyati hududlari bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-sentabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 26 991,1 | 100,0 | 159,2 |
| Andijon shahar | 1 398,7 | 5,2 | 102,5 |
| Xonobod shahar | 435,7 | 1,6 | 118,8 |
| Andijon | 513,5 | 1,9 | 121,8 |
| Asaka | 19 344,2 | 71,7 | 177,4 |
| Baliqchi | 484,2 | 1,8 | 119,2 |
| Buloqboshi | 233,1 | 0,9 | 105,9 |
| Bo‘ston | 136,8 | 0,5 | 101,6 |
| Jalaquduq | 543,1 | 2,0 | 2,6 |
| Izboskan | 424,1 | 1,6 | 116,0 |
| Ulug‘nor | 207,0 | 0,8 | 103,7 |
| Marhamat | 274,6 | 1,0 | 119,0 |
| Oltinko‘l | 362,1 | 1,3 | 92,3 |
| Paxtaobod | 458,2 | 1,7 | 174,1 |
| Xo‘jaobod | 1 391,6 | 5,2 | 173,5 |
| Shahrixon | 464,8 | 1,7 | 111,2 |
| Qo‘rg‘ontepa | 319,3 | 1,2 | 124,5 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-sentabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | 35 945,3 | 100,0 | 124,8 |
| **Andijon shahar** | 5 468,8 | 15,2 | 110,5 |
| **Xonobod shahar** | 1 699,9 | 4,7 | 101,3 |
| **Andijon** | 687,6 | 1,9 | 105,3 |
| **Asaka** | 19 976,4 | 55,6 | 154,3 |
| **Baliqchi** | 911,0 | 2,5 | 95,1 |
| **Buloqboshi** | 287,7 | 0,8 | 105,1 |
| **Bo‘ston** | 244,9 | 0,7 | 101,5 |
| **Jalaquduq** | 835,0 | 2,3 | 109,2 |
| **Izboskan** | 648,4 | 1,8 | 98,5 |
| **Ulug‘nor** | 270,7 | 0,8 | 96,7 |
| **Marhamat** | 412,7 | 1,1 | 106,4 |
| **Oltinko‘l** | 498,4 | 1,4 | 100,1 |
| **Paxtaobod** | 595,4 | 1,7 | 135,3 |
| **Xo‘jaobod** | 1 403,3 | 3,9 | 120,5 |
| **Shahrixon** | 833,9 | 2,3 | 108,5 |
| **Qo‘rg‘ontepa** | 1 171,0 | 3,3 | 115,1 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, % *da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori o‘sish sur’atlari Qo‘rg‘ontepa (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 115,1 %), Xo‘jaobod (120,5 %), Andijon sh (110,5 %), Paxtaobod (135,3 %) va Marhamat (106,4 %), Asaka (154,3 %) va Shahrixon (108,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %** *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,6 % ni) hamda Andijon shahri (15,2 %), Xonobod shahri (4,7 %), Baliqchi (2,5 %), Qo‘rg‘ontepa (3,3 %) va Xo‘jaobod (3,9 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (0,8 %), Bo‘ston (0,7 %) hamda Ulug‘nor (0,8 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (58 289,1 ming so‘m), Xonobod shahar (38 338,1 ming so‘m) va Andijon shahrida (11 834,0 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (9 988,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 8 231,8 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 56 444,4 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 12 076,1 ming so‘mni, Andijon shahrida 3 026,6 ming so‘mni, Xonobod shahrida 9 827,0 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, ming so‘m)*

**Andijon viloyati**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 10 962,7 | 8 231,8 |

**Andijon sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 11 834,0 | 3 026,6 |

**Xonobod sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 38 338,1 | 9 827,0 |

**Andijon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 490,0 | 1 859,4 |

**Asaka**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 58 289,1 | 56 444,4 |

**Baliqchi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 367,6 | 2 321,5 |

**Buloqboshi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 1 944,1 | 1 574,9 |

**Bo‘ston**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 252,1 | 1 817,0 |

**Jalaquduq**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 328,7 | 2 815,7 |

**Izboskan**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 622,6 | 1 715,3 |

**Ulug‘nor**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 347,7 | 3 325,7 |

**Marhamat**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 291,2 | 1 524,5 |

**Oltinko‘l**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 675,2 | 1 943,6 |

**Paxtaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Истеъмол маҳсулотлари |
|---|---|
| 2 956,3 | 2 275,3 |

**Xo‘jaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 12 177,7 | 12 076,1 |

**Shahrixon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 667,7 | 1 486,8 |

**Qo‘rg‘ontepa**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 5 237,5 | 1 427,9 |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 412,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinko‘l (66,8 %), Jalaquduq (48,7 %), Shahrixon (80,2 %), hamda Andijon (76,3 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (2,7 %), Xonobod shahar (38,9 %) va Andijon shaharida (19,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
*(2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9 798 dona sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 3 016 tasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 30,8 % i) Andijon shahriga, 1 013 tasi (10,3 %) Asaka tumaniga, 871 tasi (8,9 %) Andijon tumaniga, 724 tasi (7,4 %) Shahrixon tumaniga, 563 tasi (5,7 %) Xoʻjaobod tumaniga, 465 tasi (4,7 %) Oltinkoʻl tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.




2022-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 830 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 118 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 14,2 %) Andijon shahrida, 79 tasi (9,5 %) Asaka tumanida, 57 tasi (6,9 %) Shahrixon tumanida, 62 tasi (7,5 %) Xoʻjaobod tumanida, 87 tasi (10,5 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari. joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (1 013 ta), Andijon (871 ta), Shahrixon (724 ta), Xo‘jaobod (563 ta), Oltinko‘l (465 ta), Qo‘rg‘ontepa (395 ta) va Izboskan tumanlarida (368 ta) hamda Andijon shaharida (3 016 ta) qayd etildi.







2022-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (366 ta), Baliqchi (490 ta), Buloqboshi (310 ta), Marhamat (335 ta), Paxtaobod (313 ta), Bo‘ston (220 ta) va Ulug‘nor tumanlarida (139 ta) hamda Xonobod shahrida (210 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.